

INTERNET TILI VA UNING O‘ZBEK ADABIY TILI ME’YORLARIGA
TA’SIRI

Rahmonaliyeva Dilshunos Elyorbek qizi,

Namangan davlat universiteti

Filologiya fakulteti, O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

UZB-BU-23 guruhi talabasi

E-mail: dilshunosrahmonaliyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashtirish davrida raqamli muloqot tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblangan “internet tili” (net speak) tushunchasi hamda uning o‘zbek adabiy tili me’yorlariga ko‘rsatayotgan tizimli ta’siri yoritiladi. Raqamli muhitda til birliklarida yuz berayotgan o‘zgarishlar, imlo, leksik, grammatik va uslubiy darajalardagi me’yordan chetlanish holatlari aniq misollar asosida ilmiy tahlil qilinadi. Virtual nutqning yozma va og‘zaki nutq oralig‘idagi o‘ziga xos tabiati ochib berilib, internet makonida milliy til madaniyatini saqlash va adabiy me’yorlarni barqarorlashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: internet tili, adabiy til me’yori, raqamli kommunikatsiya, neologizmlar, o‘zlashma so‘zlar, qisqartmalar, emojilar, til madaniyati, internet lingvistikasi.

Abstract. This article discusses the concept of "internet language" (net speak), which is considered a member of the family of digital communication in the era of globalization, and its systemic impact on the norms of the Uzbek literary language. The changes in language units in the digital environment, deviations from the norm at the spelling, lexical, grammatical and stylistic levels are scientifically analyzed using specific examples. The specific nature of virtual speech - its place between written and oral speech - is highlighted, and practical recommendations are put forward for preserving the national language culture and stabilizing literary norms in the Internet space.

Keywords: Internet language, literary language norm, digital communication, neologisms, loanwords, abbreviations, emoji, language culture, Internet linguistics.

Аннотация. В данной статье рассматривается концепция «интернет-языка» (сетевого сленга), который в эпоху глобализации считается частью семейства цифровой коммуникации, и его системное влияние на нормы узбекского литературного языка. На конкретных примерах научно анализируются изменения языковых единиц в цифровой среде, отклонения от нормы на орфографическом, лексическом, грамматическом и стилистическом уровнях. Подчеркивается специфика виртуальной речи – ее место между письменной и устной речью – и предлагаются практические рекомендации по сохранению национальной языковой культуры и стабилизации литературных норм в интернет-пространстве.

Ключевые слова: язык интернета, литературная языковая норма, цифровая коммуникация, неологизмы, заимствованные слова, сокращения, эмодзи, языковая культура, интернет-лингвистика.

Kirish. XXI asr axborot texnologiyalari va raqamli transformatsiya davri sifatida barcha ijtimoiy institutlar qatori til tizimiga ham tub o‘zgarishlar olib kirdi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, TikTok) va elektron platformalar shunchaki axborot almashish vositasi emas, balki yangi til muhiti — “internet tili” (net speak) yoki “virtual nutq” shakllanadigan makonga aylandi. Adabiy til muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va qat’iy me’yorlashtirilgan shaklidir. Biroq internet muloqotining asosiy talabi bo‘lgan tezkorlik va tejamkorlik tamoyili adabiy tilning imlo, fonetik, leksik va uslubiy qoidalarga jiddiy daxl qilmoqda. Bu esa zamonaviy o‘zbek tilshunosligida internet lingvistikasini tizimli o‘rganishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Adabiyotlar tahlili. Internet tili va uning adabiy til me'yorlariga ta'siri masalasi zamonaviy tilshunoslikda keng o'rganilayotgan yo'nalishlardan biridir. D. Crystal internet tilini yangi kommunikativ muhit sifatida tavsiflab, uning yozma va og'zaki nutq xususiyatlarini birlashtiruvchi gibril shakl ekanligini asoslab beradi. N. Mahmudov esa til madaniyati va imlo me'yorlari masalasini yoritib, adabiy til barqarorligini saqlashning muhimligini ta'kidlaydi.

O'zbek tilshunosligida A. Nurmonovning ishlari til tarixiy rivojlanishi va uning zamonaviy transformatsiyasini tushinishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda internet tili, neologizmlar, o'zlashgan so'zlar va raqamli kommunikatsiyaning til tizimiga ta'siri keng tahlil qilinmoqda.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar internet tilining tezkor rivojlanishi adabiy til me'yorlariga ham ijobiy (lug'at boyligining kengayishi, kommunikativ imkoniyatlarning oshishi), ham salbiy (imlo va uslubiy buzilishlar) ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu sohada o'zbek tilining raqamli muhitdagi o'rni va uning me'yoriy barqarorligini saqlash masalasi hali ham dolzarb ilmiy muammo bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda internet tilining o'zbek adabiy tili me'yorlariga ta'sirini aniqlash uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy metodlari sifatida tavsifiy, analitik, qiyosiy va lingvopragmatik tahlil metodlari tanlandi.

Tavsifiy metod internet tilidagi fonetik, leksik, grammatik va uslubiy o'zgarishlarni tizimli ravishda yoritish uchun ishlatildi. Analitik metod orqali internet muloqotida uchraydigan til birliklarining strukturasi va funksional xususiyatlari tahlil qilindi. Qiyosiy metod esa adabiy til me'yorlari bilan internet tilidagi og'ishlarni solishtirish va ularning farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qildi. Lingvopragmatik yondashuv esa virtual muloqotda til birliklarining kommunikativ maqsadga ko'ra o'zgarishini o'rganishga imkon berdi. Tadqiqotning nazariy asosini internet lingvistikasi, sotsiolingvistika va zamonaviy diskurs tahlili bo'yicha ilmiy qarashlar tashkil etadi.

Tahlillar va natijalar. Tahlillar internet tilining o'zbek adabiy tili me'yorlariga ta'sirini to'rtta asosiy sathda tahlil qilish mumkin:

1. Fonetik va imlo (ortografik) me'yorlarning buzilishi internetda foydalanuvchilar vaqtni tejash uchun so'zlarni qisqartirishga yoki eshinish bo'yicha yozishga moyil bo'ladi. Bu holat yoshlar o'rtasida yozma nutq savodxonligining pasayishiga olib kelmoqda. Harflarni tushirib qoldirish: nima qilyapsiz (nm qvos), rahmat (rhm). Tovushlarni o'zgartirish (jonli nutq ta'siri): chunki (chunki/vapshe), bo'lmaydi o'rniga (bomedi). Grafik belgilarning buzilishi: O'zbek alifbosidagi o', g', sh, ch harflarini yozishda erkinlik (masalan, o', o', 6, sh o'rniga w) adabiy grafika barqarorligini buzmoqda.

2. Leksik sath va qarzlangan birliklar (O'zlashma so'zlar) Texnologik taraqqiyot tilga yangi tushunchalar bilan birga ularning nomlarini ham olib kirdi. Internet tili

neologizmlarga juda boy boʻlib, ularning aksariyati ingliz tilidan toʻgʻridan-toʻgʻri yoki rus tili vositachiligida kirib kelmoqda: akkaunt, strim, post, layk, blogger, kontent, feyk, xayp, troll, kiberjinoyat. Bu soʻzlarning aksariyati oʻzbek tili lugʻat boyligini boyitayotgan boʻlsa-da, ularning oʻzbekcha muqobillarini yaratmaslik milliy til sofligiga putur yetkazadi.

3. Grammatik va uslubiy meʼyorlarning transformatsiyasi virtual muloqot ogʻzaki va yozma nutq oraligʻidagi gibrid shakldir. Bu yerda yozma nutq meʼyorlari deyarli ishlaymaydi. Tinish belgilarining reduksiyasi: Gap oxirida nuqta qoʻyilmaydi (bu koʻpincha qoʻpollik belgisi sifatida qabul qilinadi). Sintaktik soddalashuv: Bogʻlovchilar va yordamchi soʻzlar tushib qolib, gaplar maksimal darajada qisqaradi. Hissiyotlarni ifodalash: Bir gapi bir necha undov yoki soʻroq belgilari bilan tugatiladi (????, !!!!), harflar takrorlanadi (saloom, vauuu).

4. Paralingvistik vositalar (Emojilar va memlar) internet muloqotida emojilar (smayliklar), stikerlar va memlar anʼanaviy matn oʻrnini borgan sari koʻproq egallamoqda. Ular soʻz bilan ifodalanishi kerak boʻlgan his-tuygʻular, holatlar va hatto butun boshli gaplar oʻrnini bosib, inson tafakkurining va nutqining kambagʻallashuviga bilvosita sabab boʻladi. Tahliliy taqqoslash, til sathi, adabiy til meʼyori (anʼanaviy), internet tili xususiyati (zamonaviy), taʼsir darajasi, imlo (orfografiya), qatʼiy imlo qoidalari, adabiy alifbo joriy etilishi, erkin yozuv, qisqartmalar, harf oʻzgarishlari, yuqori (salbiy) leksika. Milliy va oʻzlashgan meʼyoriy soʻzlar, Xalqaro internet terminlari, jargonlar, oʻrta (ijobiy/salbiy) sintaksis. Toʻliq qurilmali gaplar, tinish belgilari, tinish belgilarisiz qisqa parchali gaplar, yuqori (salbiy) uslubiyat, funksional uslublar chegarasi (rasmiy, ilmiy). Uslublar qorishuvi: erkin, virtual nutq, yuqori (transformatsion) xulosa va tavsiyalar. Internet tili dinamik va toʻxtatib boʻlmaydigan ijtimoiy-lingvistik hodisadir. U nutqiy muloqotni tezlashtirsa-da, oʻzbek adabiy tilining imlo va uslubiy barqarorligiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Internet tili adabiy til rivojiga bir qator ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Avvalo, internet yozma muloqot hajmini oshirdi. Avvallari yozma nutqdan kam foydalangan insonlar bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali muntazam ravishda fikr almashmoqda. Ikkinchidan, yangi tushunchalar va texnologiyalar bilan bogʻliq terminlarning kirib kelishi tilning lugʻat boyligini kengaytirmoqda. Bu esa tilning zamonaviy ehtiyojlarga moslashishiga xizmat qiladi. Uchinchidan, internet turli hududlarda yashovchi kishilar oʻrtasidagi muloqotni kuchaytirib, axborot almashinuvi jarayonini tezlashtirmoqda. Natijada tilning kommunikativ imkoniyatlari kengaymoqda. Internet orqali oʻzbek tilidagi maqolalar, videolar va boshqa kontentlar dunyoning istalgan nuqtasiga tarqaladi. Natijada xorijliklar ham oʻzbek tili va madaniyati bilan tanishish imkoniga ega boʻladilar. Internet vositasida oʻzbek adabiyoti, sheʼriyati, folklori va tarixiy manbalari keng auditoriyaga yetkaziladi. Elektron kutubxonalar va raqamlashtirilgan asarlar milliy merosni saqlash va targʻib qilishga yordam beradi. Masalan, Alisher Navoiy asarlari elektron shaklda

internetga joylashtirilgan bo‘lib, ularni dunyoning istalgan nuqtasidan o‘qish mumkin. Shuningdek, YouTube‘da o‘zbek xalq ertaklari va maqollariga bag‘ishlangan videolar joylashtiriladi. Bundan tashqari, har bir til zamon bilan hamnafas rivojlanadi. Internet tili o‘zbek tilining yangi kommunikativ ehtiyojlarga moslashishiga, zamonaviy tushunchalarni ifodalash imkoniyatlarining kengayishiga yordam bermoqda. Masalan, “Onlayn”, “blog”, “veb-sayt”, “podkast”, “striming” kabi yangi atamalar o‘zbek tilida faol qo‘llanilmoqda va kundalik nutqning bir qismiga aylanib bormoqda.

Internet orqali mamlakatning turli hududlarida yashovchi insonlar o‘zaro muloqot qiladilar, fikr almashadilar va axborot ulashadilar. Bu jarayon o‘zbek tilining adabiy me‘yorlarini kengroq qo‘llashga hamda umumxalq til birligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Jumladan, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlaridagi yoshlar Telegram guruhlarini yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qilib, adabiy o‘zbek tilida yozish va gaplashishga odatlanadilar.

Internet orqali o‘zbek tilidagi maqolalar, videolar va boshqa kontentlar dunyoning istalgan nuqtasiga tarqaladi. Natijada xorijliklar ham o‘zbek tili va madaniyati bilan tanishish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘zbek tilini xalqaro miqyosda tanitadi. Misol, YouTube‘dagi o‘zbek tilini o‘rgatuvchi videolar yoki o‘zbek madaniyatiga bag‘ishlangan bloglar chet ellik tomoshabinlar tomonidan ham kuzatiladi va o‘zbek tiliga qiziqish uyg‘otadi

Internet tili zamonaviy kommunikatsiyaning muhim vositasi bo‘lib, u til rivojiga ham, til me‘yorlariga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Uning ijobiy jihatlari tilning funksional imkoniyatlarini kengaytirsa, salbiy jihatlari adabiy til qoidalarining buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois internet muhitida ham adabiy til me‘yorlariga rioya qilish, til madaniyatini rivojlantirish va milliy tilning boy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish zarur.

Xulosa. Internet tili zamonaviy kommunikatsiya tizimining ajralmas qismi bo‘lib, u o‘zbek adabiy tilining rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, internet muloqoti adabiy til me‘yorlarida fonetik, leksik, grammatik va uslubiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, u tilning lug‘at boyligini kengaytirish, yangi terminlarning shakllanishi hamda kommunikativ imkoniyatlarning oshishiga xizmat qilmoqda.

Internet tilining gibril tabiati – yozma va og‘zaki nutq xususiyatlarini birlashtirishi – adabiy til me‘yorlarining barqarorligiga ham ijobiy, ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli raqamli muhitda til madaniyatini saqlash, adabiy til me‘yorlariga rioya qilish va milliy tilning ifoda imkoniyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. Til madaniyati va imlo muammolari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
2. Phoenix Publication (2025). Internet tili va uning til madaniyatiga ta‘siri.
3. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. - Toshkent: O‘qituvchilar, 2018.

4. O‘zbekiston til va adabiyotshunosligi masalalari. Wordly Knowledge Journal (2026).
5. Internet davrida adabiy til me’yorining buzilishi masalalari. Ilmiy to‘plam.
6. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge University Press, 2006. Zenodo Open Repository (2026).
7. Internet Language and the Concept of Digital Communication in Linguistics.

